



RUS, XITOIY VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ISHONTIRISH VA SUGGESTIV TA’SIR NUTQ AKTLARINING TADQIQI TO‘G‘RISIDA

Shi Jinding,

O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi

e-mail: jindingshi01@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751247>

Annotatsiya. *Maqola rus, xitoy va o‘zbek tilshunosligida ishontirish va undash suggestiya nutq aktlarining o‘rganilishiga doir qiyosiy tahlilga bag‘ishlangan. Unda nutqiy aktlar umumiy nazariyasi, pragmatika, lingvokulturologiya va diskurs-tahlilning ratsional-argumentativ hamda suggestiv ta’sirni tavsiflashda har bir milliy maktabda qanday moslashtirilgani ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ishontirish nutqiy aktlari, undash nutqiy aktlari, nutqiy ta’sir, pragmalingvistika, perlodativ effekt, kommunikativ strategiyalar, qiyosiy tahlil.*

Аннотация. *Статья посвящена сравнительному анализу исследований речевых актов убеждения и внушения в российской, китайской и узбекской лингвистике. Рассматривается, каким образом общая теория речевых актов, прагматика, лингвокультурология и дискурс-анализ были адаптированы в каждой национальной школе для описания рационально-аргументативного и суггестивного воздействия.*

Ключевые слова: *речевые акты убеждения, речевые акты внушения, речевое воздействие, прагмалингвистика, перлокутивный эффект, коммуникативные стратегии, сравнительный анализ.*

Abstract. *The article provides a comparative analysis of research on speech acts of persuasion and suggestion within the Russian, Chinese, and Uzbek linguistic traditions. It examines how the general theory of speech acts, pragmatics, linguoculturology, and discourse analysis have been adapted in each national school to describe rational-argumentative and suggestive influence.*

Keywords: *speech acts of persuasion, speech acts of suggestion, speech influence, pragmalinguistics, perlocutionary effect, communicative strategies, comparative analysis.*

Kirish. *Zamonaviy pragmalingvistikada ishontirish va suggestiya (singdirish) nutq aktlari nutqiy ta’sirning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Chunki ularda nutqning illokutiv yo‘nalganligi, kommunikativ strategiyani tanlash hamda kutilayotgan perlodativ ta’sir o‘zaro chambarchas bog‘lanadi. Bunday yondashuvning nazariy asosi J. L. Ostin tomonidan ilgari surilgan lokutiv, illokutiv va perlodativ nutq jihatlarining klassik tasnifiga borib taqaladi. Mazkur nazariya tufayli nutqiy ta’sir faqat ma’lumot uzatish vositasi sifatida emas, balki so‘z yordamida amalga oshiriladigan harakat sifatida ham talqin qilina boshlandi [Austin, 1975].*



Nutq aktlari nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichida J. R. Syorning tasnifiy yondashuvi direktiv hamda ularga yaqin bo'lgan ta'sir ko'rsatuvchi nutq aktlarining illokutiv harakatlar tizimidagi o'rnini yanada aniqroq belgilash imkonini berdi [Searle, 1979]. Shunisi e'tiborliki, real diskursda ushbu ikki akt ko'pincha o'zaro tutash hududni hosil qiladi: bunda argumentatsiya emotsional ta'sir bilan kuchaytiriladi, suggestiv ifoda esa mantiqiy dalillar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Nutq aktlarini o'rganishga oid milliy ilmiy maktablar tahlili, ayniqsa, tadqiqot obyekti sifatida ishontirish va suggestiya aktlari tanlanganda samarali natijalar beradi. Turli lingvomadaniy muhitlarda fikrni bevosita ifodalash darajasi, argumentning maqomi, implitsit ma'no vositalarining roli, prosodiya hamda noverbal vositalarning ahamiyati turlicha namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, madaniyatlararo muloqot nutqiy xulq-atvorni talqin qilishning nozik kommunikativ tafovutlari va milliy-madaniy me'yorlarini hisobga olishni talab etadi [Axmadjonova, Komilova, 2025, 3-b.; Khushmamatova, 2025, 217-b.]. Mazkur maqolaning maqsadi rus, xitoy va o'zbek tilshunosligida aynan ishontirish va suggestiya nutq aktlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarning qanday shakllanganligini aniqlash, nutqiy ta'sirning qaysi jihatlari har bir ilmiy maktabda markaziy o'rin egallashini ko'rsatish hamda ushbu aktlarni xitoy, rus va o'zbek tillarida qiyosiy tadqiq etish uchun asos bo'la oladigan parametrlarni belgilashdan iborat.

1. Rossiya maktabi: ishontirish va suggestiyani strategik-pragmatik tavsiflash.

Rossiya tilshunoslik an'anasi kommunikativ strategiya va taktika tushunchalarini ishlab chiqish orqali nutqiy ta'sirni o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan. Ushbu yondashuvda ishontirish so'zlovchining umumiy maqsadiga bo'ysundirilgan nutqiy harakatlar ketma-ketligi sifatida talqin qilinadi. Argumentlar, baholar, murosali yondashuvlar, takroriy formulalar hamda adresatga murojaatlar pragmatik jihatdan o'zaro bog'langan yaxlit tizimni tashkil etadi. Strategik-taktik nuqtai nazardan qaralganda, ochiq ishontirish bilan nisbatan yashirin suggestiv ta'sir o'rtasidagi farq yanada yaqqol namoyon bo'ladi [Iser, 2019]. Shu bilan birga, Rossiya ilmiy an'anasi nutqiy ta'sirning umumiy tipologiyasiga tayanadi. Ushbu tipologiya doirasida ta'sir ko'rsatuvchi aktlarning turli funksional ko'rinishlari ajratilib, ularning muloqot tizimidagi o'rni aniqlashtiriladi [Fedorova, 1991]. Rus tilidagi ilmiy tadqiqotlarda ishontirish va suggestiyani farqlash, odatda, eksplisit va implitsit ta'sir vositalarining o'zaro nisbatiga asoslanadi. I.A. Sternin ishontirish va suggestiyani nutqiy ta'sirning ikki alohida usuli sifatida ko'rsatadi: uning fikricha, ishontirish mantiqiy dalillar va emotsional ta'sir uyg'unligiga tayanadi, suggestiya esa ma'lumotni tanqidiy tahlilsiz qabul qilishga undash, muallif obro'si hamda psixologik bosim orqali amalga oshiriladi [Sternin, 2001]. Ishontirish ko'proq argumentativ tuzilishga va chiqarilgan xulosalarning ratsional qabul qilinishiga tayanadi. Suggestiya esa perlokutiv ta'sirning ustuvorligi, axborot manbaining nufuzi, takrorlash, emotsional modulyatsiya



hamda soʻzlovchi va adresat oʻrtasidagi kontekstual nomutanosiblik birinchi oʻringa chiqadigan holatlarda namoyon boʻladi.

2. Xitoy maktabi: ierarxiklik, bilvositalik va suggestiv taʼsirning eksperimental verifikatsiyasi. Xitoy tilshunosligida ishonirish va suggestiya aktlarini oʻrganish Gʻarb nutq aktlari nazariyasi hamda ierarxik kommunikatsiyaning mahalliy meʼyorlari kesishgan nuqtada shakllangan. Xitoy kommunikativ makonining bunday talqini Yueguo Gu tadqiqotlari bilan hamohang boʻlib, unda zamonaviy xitoy tilidagi xushmuomalalik maqom, ijtimoiy mavqe, “yuz” (face) tushunchasi va kommunikativ niyatni ifodalashning ijtimoiy jihatdan maqbul shakllari bilan bogʻliq madaniy jihatdan oʻziga xos meʼyorlar tizimi sifatida tavsiflanadi [Gu, 1990]. Xitoy ilmiy maktabida muloqotning ijtimoiy matritsasi alohida ahamiyatga ega: kim gapiryapti, kimga murojaat qilmoqda, muloqot ishtirokchilari qanday maqomiy munosabatda turibdi va taʼsir koʻrsatish niyatini qanchalik ochiq ifodalash mumkinligi muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli xitoy diskursida ishonirish aktlari koʻpincha toʻgʻridan-toʻgʻri argumentatsiya ijtimoiy jihatdan neytral hisoblangan madaniyatlarga nisbatan bilvosita, yumshatilgan yoki kompozitsion jihatdan taqsimlangan shaklda ifodalanadi [Zou, Zhu, 2022]. Yumshatilgan direktivlik va bilvosita undashga boʻlgan ushbu tendensiya M. Skewis tomonidan xitoy tilidagi direktiv nutq aktlariga bagʻishlangan tadqiqotda ham tasdiqlanadi. Tadqiqotda taʼkidlanishicha, xitoy anʼanasida pragmatik samaradorlik koʻpincha taʼsirning ochiq ifodalanishi emas, balki uning yumshatilgan shakli orqali taʼminlanadi [Skewis, 2003].

Xitoy tadqiqotlarining yana bir muhim jihati implitsitlikka va amalda suggestiv vazifani bajaradigan nutqiy shakllarga qaratilgan eʼtibordir. Masalan, rasmiy yangiliklar sarlavhalari tahlili shuni koʻrsatadiki, axborot beruvchi shakl koʻpincha yashirin ishoniruvchi va yoʻnaltiruvchi mazmun bilan uygʻunlashadi. Bunday hollarda soʻz tanlovi, sarlavhaning kompozitsiyasi hamda faollashtiriladigan presuppozitsiyalar adresat talqinini oldindan belgilangan yoʻnalishga yoʻnaltiradi. Shu jihatdan xitoy anʼanasi suggestiyani har doim ham aniq verbal koʻrsatkichlarga ega boʻlmagan nutq akti sifatida oʻrganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ke Li va Wenyu Liu oʻz tadqiqotlarida xitoy tilidagi nufuzli akademik diskursda qoʻllanadigan suggestiv nutq aktlarini tahlil qilib, tavsiya ifodalashning konvensionallashgan va bilvosita vositalariga ustuvorlik berilishini aniqlaydilar. Bu holat ishonirish, tavsiya berish va suggestiv taʼsir oʻrtasidagi oʻtish zonasini tushunishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi [Li, Liu, 2024].

3. Oʻzbek maktabi: pragmalingvistika, madaniy meʼyorlar va taʼsirning multimodal resurslari. Oʻzbek tilshunoslik anʼanasi ishonirish va suggestiya aktlarini pragmalingvistika, sotsiolingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslikning oʻzaro uygʻunligi asosida tahlil qilishga yoʻnaltirilgan. Ushbu yondashuvda nutqiy taʼsir hurmat meʼyorlari, ijtimoiy masofa, jamoaviy axloq va marosimlashgan muloqot shakllari bilan



uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. O‘zbek kommunikativ makonida ishonitirish va suggestiya aktlari maqom, yosh, ijtimoiy rol hamda fikrni qanchalik ochiq ifodalash mumkinligi bilan chambarchas aloqador hisoblanadi. Metodologik jihatdan bunday yondashuv o‘zbek pragmalingvistikasida shakllangan bo‘lib, Sh. Safarov kommunikativ maqsad, adresatga yo‘naltirilganlik va nutq strategiyasini tanlashni madaniy jihatdan belgilangan muloqot me‘yorlari bilan bog‘laydi. Ishontirish va suggestiya aktlarini o‘rganishda mazkur yondashuv ayniqsa samarali bo‘lib, u nafaqat nutq mazmunini, balki uning ijtimoiy-pragmatik yo‘nalganligini ham hisobga olish imkonini beradi [Safarov, 2008].

O‘zbekistonda pragmalingvistikaning shakllanishi tadqiqot obyektining formal-sintaktik sathdan ko‘p qatlamli kommunikativ modellarga kengayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bunday modellarda nutq akti diskursning mazmuniy markazi sifatida namoyon bo‘ladi [Hakimov, 2001]. Ishontirish aktlari nuqtai nazaridan bu yondashuv dalilning faqat leksik-grammatik shaklini emas, balki unga hamroh bo‘ladigan barcha vositalarni – intonatsiya, takror, nutq etiketi, murojaat shakllari, imo-ishora, pauza va boshqa elementlarni ham hisobga olish imkonini beradi. Aynan shu vositalar ko‘pincha suggestiv ta’sirning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur mavzuni izohlashda paralingvistika va multimodalikka oid tadqiqotlar ham muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Agar ishonitirish uchun mantiqiy izchillik va nutqiy harakatlarning ketma-ketligi muhim bo‘lsa, suggestiya o‘zbek kommunikativ an’anasida noverbal vositalar hamda marosimlashgan muloqot komponentlari bilan yanada yaqin bog‘liqdir. Bu holat paralingvistik vositalar, salomlashish, rad etish va madaniy jihatdan belgilangan boshqa nutqiy xulq-atvor shakllariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi [Abduazizova, 2023, 96–108-b.]. Boshqacha aytganda, nutqiy ta’sir ko‘pincha so‘z, intonatsiya, imo-ishora hamda jamiyat tomonidan tan olingan kommunikativ ssenariylar o‘rtasida taqsimlanadi.

4. Qiyosiy xulosalar: milliy ilmiy maktablar nimani farqlaydi? Ko‘rib chiqilgan tilshunoslik an’analarida ishonitirish va suggestiya aktlari maqsadli nutqiy ta’sir shakllari sifatida talqin qilinadi. Biroq ularni farqlash mezonlari turli ilmiy maktablarda bir xil emas. Rossiya maktabi, avvalo, ishonitiruvchi diskursning strategik-taktik tashkil etilishiga hamda ta’sirni kuchaytiruvchi perlokutiv texnologiyalarga e’tibor qaratadi. Xitoy an’anasi esa bilvositalik, maqomiy ierarxiya, prosodiya va yashirin suggestiyani aniqlashning eksperimental jihatdan tekshiriladigan mexanizmlariga alohida ahamiyat beradi. O‘zbek maktabi esa madaniy ssenariylar, paralingvistik vositalar, marosimlashgan muloqot etikasi va ta’sirning multimodal tabiatini markaziy omil sifatida ko‘radi.

Qiyosiy tahlil uchun uchta asosiy o‘qni ajratish mumkin. Birinchisi, “ratsional argumentatsiya – implitsit suggestiya” o‘qi bo‘lib, unda Rossiya tadqiqotlari ko‘proq



argumentni rivojlantirish texnologiyalarini tavsiflasa, Xitoy tadqiqotlari bilvosita yoʻnaltirish usullariga, Oʻzbek tadqiqotlari esa dalil va ijtimoiy jihatdan maqbul ifoda shakllarining uygʻunligiga eʼtibor qaratadi. Ikkinchisi, “eksplicit – bilvosita” oʻqi boʻlib, u ayniqsa xitoy materiali uchun muhim hisoblanadi hamda ishontirish va suggestiyani farqlashda asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon boʻladi. Uchinchisi, “verbal – multimodal” oʻqi boʻlib, u oʻzbek anʼanasida eng yaqqol koʻrinishga ega boʻlsa-da, amalda uchala ilmiy maktab uchun ham dolzarb hisoblanadi.

5. Keyingi tadqiqotlar istiqbollari. Xitoy, rus va oʻzbek tillarida ishontirish hamda suggestiya aktlarini qiyosiy oʻrganish uchun bir nechta tadqiqot usullarini integratsiyalash istiqbolli yoʻnalish sifatida koʻrinadi. Birinchidan, turli janrlarda qoʻllanadigan ishontirish va suggestiyaga xos tipik til formulalarini korpus materiallari asosida tavsiflash zarur. Ikkinchidan, til egalari muayyan nutqiy birliklarni ratsional ishontirish yoki suggestiv taʼsir sifatida qanday qabul qilishlarini aniqlashga imkon beradigan eksperimental metodikalardan foydalanish muhimdir. Uchinchidan, multimodal va raqamli kommunikatsiya shakllarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu kommunikativ muhitda ishontirish va suggestiya oʻrtasidagi chegara yanada harakatchan va murakkab tus oladi.

Xulosa. Ishontirish va suggestiya aktlarini tadqiqot markaziga olib chiqish nutq aktlari nazariyasiga oid milliy ilmiy maktablarni talqin etishga yangicha yondashuvni yuzaga keltiradi. Bunday qiyosiy tahlil pragmatika sohasidagi umumiy yutuqlarni sanab oʻtish bilangina cheklanmay, balki har bir ilmiy anʼana nutqiy taʼsirning qaysi mexanizmlarini asosiy deb hisoblashini aniqlash imkonini beradi. Rossiya maktabi ishontiruvchi va suggestiv diskursning strategik hamda perlokutiv tuzilishini yoritib beradi. Xitoy maktabi ierarxiya, bilvositalik, prosodiya va suggestiv taʼsirning eksperimental tekshirilishiga alohida eʼtibor qaratadi. Oʻzbek maktabi esa nutqiy taʼsirning marosimlashgan muloqot, paralingvistik vositalar va multimodallik bilan madaniy jihatdan bogʻliqligini markaziy omil sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvlarning oʻzaro uygʻunligi xitoy, rus va oʻzbek tillarida ishontirish hamda suggestiya nutq aktlarini qiyosiy oʻrganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Shu bilan birga, u nutqiy taʼsirning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, zamonaviy kommunikativ jarayonlarda ishontirish va suggestiyaning namoyon boʻlish shakllarini chuqurroq anglash hamda madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdelhamid S.A., Alefirenko N.F., Chumak-Zhun I.I. Speech acts and Russian text-generating discourse // Russian Language Studies. – 2023. – Vol. 21. – № 1. – P. 7-17.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – 2nd ed. – Oxford: Clarendon Press, 1975. – 168 p.



3. Axmadjonov N.Z., Komilova M.R. Revisiting speech act theory in German linguistics: a systematic review of methodological approaches // *Cogent Arts & Humanities*. – 2025. – Vol. 12. – № 1.
4. Bobojonova S.Yo‘. Ta’limiy diskurs va uning lingvistik tahlili // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2023. – Vol. 4 (TMA Conference). – P. 135-137.
5. Gu Y. Politeness phenomena in modern Chinese // *Journal of Pragmatics*. – 1990. – Vol. 14. – № 2. – P. 237-257.
6. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Khushmamatova A. The linguistic-cognitive aspects of dialogical communication // *International Scientific Journal of Biruni*. – 2025. – Vol. 4. – Issue 2. – P. 216-219.
8. Li K., Liu W. Delving into suggestion speech acts in Chinese authoritative academic discourse: A cognitive pragmatic perspective // *Pragmatics*. – 2024. – Vol. 34. – № 2. – P. 161-189.
9. Liu S. An experimental study of the classification and recognition of Chinese speech acts // *Journal of Pragmatics*. – 2011. – Vol. 43. – № 6. – P. 1801-1817.
10. Sabirova M.K. The Ways of Expressing Speech Acts in Newspaper Texts // *O‘zbekistonda xorijiy tillar*. – 2020. – № 3 (32). – P. 42-51.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.
12. Searle J.R. A taxonomy of illocutionary acts // *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – P. 1-29.
13. Skewis M. Mitigated directness in Honglou meng: directive speech acts and politeness in eighteenth century Chinese // *Journal of Pragmatics*. – 2003. – Vol. 35. – № 2. – P. 161-189.
14. Wang Z., Liang Z., Liu P., Mao Y., Ma Y. I am criticizing you when I say “I am not criticizing you”: a prosodic-pragmatic exploration of the Chinese metapragmatic negation *bùshì wǒ shuō nǐ* // *Language Sciences*. – 2025. – Vol. 110.
15. Zou L., Zhu Y. Review of Research on Development of Speech Act Theory and Its Application // *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*. – 2022. – Vol. 5. – № 12. – P. 127-135.
16. Абдуазизова Д.А. Анализ паралингвистических средств в художественном тексте // *O‘zbekistonda xorijiy tillar*. – 2023. – № 5 (52). – С. 96-108.
17. Жарков И.В., Колтунова Е.А. Оппозиция речевых актов одобрения и оправдания в сфере судебной лингвистической экспертизы // *Юрислингвистика*. – 2020. – № 15. – С. 17-21.
18. Норман Б.Ю. Согласие и несогласие в свете теории речевых актов // *Коммуникативные исследования*. – 2020. – Т. 7. – № 2. – С. 300-315.
19. Стернин И.А. Введение в речевое воздействие. – Воронеж: Истоки, 2001. – 252 с.
20. Федорова Л.Л. Типология речевого воздействия и его место в структуре общения // *Вопросы языкознания*. – 1991. – № 6. – С. 46-50.